



THE CONCEPT OF “HUSNI-KHULK” IN RELIGIOUS TEACHINGS AND ITS AXIOLOGICAL FOUNDATIONS

Orzigul Nematova

Independent researcher

International Islamic Academy of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Husni khulk, moral virtues, axiology, religious teachings, value system, Islamic morality, Christian morality, Buddhist morality, Quran and Hadith, moral perfection, goodness and justice, spiritual purification, spiritual perfection, moral principles.

Received: 13.02.25

Accepted: 15.02.25

Published: 17.02.25

Abstract: The article analyzes the philosophical foundations of the concept of good character in religious teachings and its axiological (value) content. Good character is a concept that embodies the moral qualities of a person and is interpreted in various religious traditions in connection with such qualities as kindness, justice, patience and honesty. Religious teachings play an important role in the formation and strengthening of moral values. In particular, from a philosophical point of view, the essence of good manners and their role in the life of society and an individual within the framework of Islam, Christianity, Buddhism and other religions are studied. In Islamic philosophy, good character is explained on the basis of the Quran and Hadith and is considered an important criterion of human perfection. In Christian moral teaching, love, forgiveness and humility are considered basic values. On the other hand, Buddhism considers good behavior to be an important factor on the path to spiritual purification and the attainment of nirvana. The article analyzes the axiological foundations of pious behavior in religious teachings, that is, its place and significance in the value system. In this process, approaches from the perspective of philosophy, religious studies and ethics are studied, and the importance of moral values in modern society is emphasized. The article is intended to enrich scientific discussions on the formation of spiritual well-being and moral environment in society by examining the

**DINIY TA'LIMOTLARDA HUSNI-XULQNI TUSHUNISH VA UNING AKSIOLOGIK
ASOSLARI****Orzigul Ne'matova***mustaqil tadqiqotchi**O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi**Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Husni-xulq, axloqiy fazilatlar, aksiologiya, diniy ta'limotlar, qadriyatlar tizimi, islom axloqi, xristianlik axloqi, buddizm axloqi, Qur'on va Hadis, axloqiy komillik, ezgulik va adolat, ruhiy poklanish, ma'naviy barkamollik, axloqiy tamoyillar.

Annotatsiya: Mazkur maqolada diniy ta'limotlarda husni-xulq tushunchasining falsafiy asoslari va uning aksiologik (qadriyatga oid) mazmuni tahlil qilinadi. Husni-xulq insonning axloqiy fazilatlarini o'zida mujassam etgan tushuncha bo'lib, turli diniy an'analarda ezgulik, adolat, sabr-toqat, halollik kabi fazilatlar bilan bog'liq ravishda talqin etiladi. Diniy ta'limotlar axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Xususan, Islom, Xristianlik, Buddizm va boshqa dinlar doirasida husni-xulqning mohiyati, uning jamiyat va shaxs hayotidagi o'rni falsafiy nuqtayi nazardan yoritiladi. Islom falsafasida husni-xulq Qur'on va Hadis asosida tushuntiriladi hamda insoniy komillikning muhim mezon sifatida qaraladi. Xristianlik axloqiy ta'limotlarida esa muhabbat, kechirimlilik va kamtarlik asosiy qadriyatlar sifatida namoyon bo'ladi. Buddizm esa husni-xulqni ruhiy poklanish va nirvanaga erishish yo'lidagi muhim omil sifatida ko'rib chiqadi. Maqolada diniy ta'limotlarda husni-xulqning aksiologik asoslari, ya'ni uning qadriyatlar tizimidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Bu jarayonda falsafa, dinshunoslik va axloqshunoslik nuqtayi nazaridan yondashuvlar o'rganiladi hamda zamonaviy jamiyatda husni-xulq qadriyatlarining ahamiyati yoritiladi. Ushbu maqola axloqiy qadriyatlarning diniy va falsafiy asoslarini tadqiq etish orqali jamiyatdagi ma'naviy barkamollik va axloqiy muhitni shakllantirishga oid ilmiy muhokamalarni boyitishga xizmat qiladi.

ПОНЯТИЕ “ХУСНИ-ХУЛК” В РЕЛИГИОЗНЫХ УЧЕНИЯХ И ЕГО АКСИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

Орзигул Нематова

Независимый исследователь

Международной исламской академии Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Хусни-хулк, нравственные добродетели, аксиология, религиозные учения, система ценностей, исламская мораль, христианская мораль, буддийская мораль, Коран и хадисы, нравственное совершенство, добро и справедливость, духовное очищение, духовное совершенство, нравственные принципы.

Аннотация: В статье анализируются философские основы понятия доброго характера в религиозных учениях и его аксиологическое (ценностное) содержание. Добрый характер — это понятие, воплощающее нравственные качества человека и трактуемое в различных религиозных традициях в связи с такими качествами, как доброта, справедливость, терпение и честность. Религиозные учения играют важную роль в формировании и укреплении нравственных ценностей. В частности, с философской точки зрения исследуется сущность хороших манер и их роль в жизни общества и отдельного человека в рамках ислама, христианства, буддизма и других религий. В исламской философии хороший характер объясняется на основе Корана и хадисов и считается важным критерием человеческого совершенства. В христианском нравственном учении любовь, прощение и смирение рассматриваются как основные ценности. С другой стороны, буддизм считает хорошее поведение важным фактором на пути к духовному очищению и достижению нирваны. В статье анализируются аксиологические основы благочестивого поведения в религиозных учениях, то есть его место и значение в системе ценностей. В этом процессе изучаются подходы с точки зрения философии, религиоведения и этики, а также подчеркивается важность моральных ценностей в современном обществе. Статья призвана обогатить научные дискуссии о формировании духовного благополучия и нравственной среды в обществе путем рассмотрения религиозных и философских основ нравственных ценностей.

KIRISH

Tarixdan ma'lumki, kitob va sahifa tushgan barcha dinlarda asosiy e'tibor jamiyatning ma'naviy jihatini takomillashtirish hamda inson jism va ruhiyatining tarbiyasiga qaratilgan. Diniy ta'limotlarning juda ko'p ko'rsatmalari axloqiy yo'nalishlarga qaratilgan bo'lib, dunyodagi barcha go'zal axloqlar, insoniy fazilatlarni ijro etishga chorlaydi. Ularning ikki dunyoda keltiradigan saodati ko'rsatib berilgan: ijro qilgan savobli amallar uchun dunyo hayoti davrida yaxshi mukofotlar va'da qilingan. Bu ko'rsatmalardan maqsad inson farzandi o'zining ravishi, suvrati, siyrati, muomala madaniyatida jamiyat bilan yuqori darajada munosabatda bo'lishga erishishdir. "Zero, inson vujudi va tabiatining yaratilishidan, u tashqaridan o'ziga yaxshilik kelishini yoqtiradi, o'zgalarga yaxshilik qilish ba'zilar uchun qiyin kechadigan amallardan hisoblanadi"[1]. Shuning uchun inson doim boshqalardan go'zal axloq, chiroyli muomala kutadi, vaholanki, inson o'zgalardan kutayotgan go'zal axloqiy madaniyat o'zida bor yo'qligiga ahamiyat bermaydi. Shu bois inson insonga go'zal axloq ko'rsatishi nafaqat diniy talablar jumlasiga kiritildi, balki ular imon darajasidagi amallar qatorida sanaladi. Bu haqda Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) bayon qilib: "Mo'minlarning imon jihatdan komili go'zal axloq sohibidir", deganlar (*Imom Abu Dovud rivoyati*).

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Husni-xulq (axloq, etika) bo'yicha tadqiqot olib borgan faylasuf olimlar ko'p bo'lib, ularning ishlari Sharq va G'arb falsafasi doirasida muhim ahamiyat kasb etgan. Quyida husni-xulq (axloqiy fazilatlar)ni o'rgangan. Farobiy (872–950) – "Fozil odamlar shahri" asarida axloqiy jamiyat tuzilishini va inson fazilatlarini, Ibn Sino (980–1037) – "Axloqiy risolalar"ida axloqiy fazilatlar va inson ruhiyatini, Nosir Xisrav (1004–1088) – Axloqiy komillik va insoniy fazilatlarni, G'azzoliy (1058–1111) – "Ihyo ulum ad-din" va "Kimyoi saodat" asarlarida axloqiy fazilatlar, inson qalbi pokligini, Yusuf Xos Hojib (XI asr) – "Qutadg'u bilig" asarida axloqiy qadriyatlarni, Alisher Navoiy (1441–1501) – "Mahbub ul-qulub" va boshqa asarlarida insoniy fazilatlarni tadqiq va tahlil qilib yuksak qadrlagan.

G'arb faylasuflari: 1. Sokrat (470–399 B.C.) – Axloqiy fazilatlarni inson hayotining asosiy qadriyati deb hisoblagan. 2. Platon (427–347 B.C.) – "Davlat" va "Faylasuf shoh" g'oyalarida axloqiy davlatni asoslab bergan. 3. Aristotel (384–322 B.C.) – "Nikomax axloqi" asarida ezgulik va fazilat axloqini o'rgangan. 4. Seneka (4 B.C.–65 A.D.) – Stoik axloqiy falsafasining asoschilaridan biri. 5. Immanuel Kant (1724–1804) – "Axloqiy imperative" tushunchasini ilgari surgan. 6. Jon Styuart Mill (1806–1873) – Utilitarizm asoschisi sifatida axloqiy oqibatlarni o'rganib chiqqan. 7. Fridrix Nitsshe (1844–1900) – An'anaviy axloqni tanqid qilib, "qudrat irodasi" konsepsiyasini taklif qilgan. Bu faylasuflar axloq falsafasini turli jihatlar bilan o'rgangan va husni-xulq masalasiga turlicha yondashgan.

Tahlil va natijalar. Yahudiylik ta'limotida husni-xulq (yaxshi axloq) markaziy o'rin tutadigan masalalardan hisoblanib, u ham diniy, ham falsafiy tizimning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Bu ta'limotning falsafiy mohiyatini tushunishda uning quyidagi asosiy manbalar va tushunchalari yordam beradi. Tavrot – yahudiylikning asosiy ilohiy manbasi bo'lib, axloqiy qoidalar va tamoyillarni belgilab beradi. Talmud – Tavrotning sharhi bo'lib, axloqiy va huquqiy masalalar bo'yicha keng qamrovli ta'limot sharhini o'z ichiga oladi. Yahudiylik axloq falsafasining amaliy ahamiyati, inson o'zini axloqan tarbiyalashiga asoslanadi.

Yahudiylikda husni-xulq Xudoning irodasiga bo'ysunish bilan bog'liq. Tovrot va Talmudda axloqiy hayot insonning Xudo oldidagi majburiyati sifatida ko'rsatiladi. Masalan, “Mikha 6:8” oyatida: “Xudo sendan adolatli bo'lishni, rahmdil bo'lishni va kamtarlik bilan yurishni talab qiladi” degan g'oya ilgari surilgan. “Yahudiy falsafasida axloq shunchaki shaxsiy yoki mahalliy masala emas, balki butun jamiyat va insoniyatga tegishli bo'lgan universal tamoyillardir”[2:216]. Yahudiylikda inson o'z-o'zini tarbiyalashda mas'uliyati mavjudligi uqtiriladi. Unga ko'ra, inson o'z axloqini ongli ravishda tarbiyalashi, o'z xulq-atvorini kuzatib, tuzatib borishi kerak. Yahudiylikda inson axloqining asosiy fazilatlarini inson husni-xulqining muhim jihatlari sifatida: “adolat (Tzedakah) – adolatli va saxovatli bo'lish majburiyati; b) mehribonlik (Chesed) – boshqalarga yaxshilik qilish; c) halollik (Yosher) – rostgo'ylik va halol hayot kechirish; d) sabr-toqat (Savlanut) – sabr va chidamlilik”[3]. Insonning xulqi va axloqi jamiyatda o'rnini mustahkamlovchi asosiy tamoyil sifatida qaraladi. U diniy buyruqlarga rioya qilishi, jamiyat oldidagi mas'uliyat va o'z-o'zini tarbiyalash bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois, yahudiy axloq falsafasi nafaqat shaxsiy hayot, balki jamiyatning ma'naviy asoslarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Yahudiylik ta'limotida husni-xulq (yaxshi axloq) va uning axloq-odob bilan o'zaro bog'liqligi chuqur falsafiy mazmunga ega. Yahudiy falsafasi va diniy qarashlar axloqiy fazilatlarini odamning ichki dunyosi va tashqi xulq-atvori bilan chambarchas bog'liq holda tushuntiradi. Bu qarashlarning asosiy manbalari Tavrot (Torah), Talmud va turli yahudiy mutafakkirlarining asarlarida bayon etilgan. “Yahudiylik diniy qarashlariga ko'ra, odamning ichki dunyosidagi ikki qarama-qarshi kuch: “**yetser ha-tov**” (yaxshilikka moyillik) va “**yetser ha-ra**” (yomonlikka moyillik)”[4:479]. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, husni-xulqni shakllantirish uchun inson “**yetser ha-ra**”ni nazorat qilish va “**yetser ha-tov**”ga ergashish kerakligi ko'rsatib beriladi.

Yahudiylikda husni-xulq va axloq-odob bir-birini to'ldiradi. Husni-xulq – bu insonning ichki sifati, axloq-odob esa bu uning tashqi ifodasi hisoblanadi. Yahudiylik ta'limotida husni-xulq insonning ichki fazilati sifatida tushunilsa, axloq-odob uning amaliy ifodasi hisoblanadi. Ularning uyg'unligi odamning jamiyat bilan va Xudo bilan munosabatlarini mustahkamlashga xizmat

qiladi. Shuning uchun yahudiy falsafasida inson o'z axloqini doimiy ravishda takomillashtirib borishi va jamiyatga foydali bo'lishi lozim deb qaraladi.

Diniy ta'limotlarda husni-xulqni tushunish va uning aksiologik asoslarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Husni-xulq – bu insonning axloqiy fazilatlari, ijobiy xatti-harakatlari va muomala madaniyatini o'z ichiga olgan tushunchadir. Turli diniy ta'limotlarda husni-xulqqa turlicha ta'rif berilsa-da, ularning barchasida insonning ma'naviy poklanishi, jamiyatga foyda keltirishi va ilohiy rozilikka erishishi kabi umumiy maqsadlar ko'zda tutiladi. “Husni-xulq” tushunchasi Buddizm va xristianlik dinlarida asosan go'zal axloq shaklida talqin qilinadi. Ushbu tushcha har uchala dinning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Buddizm, Xristianlik va Islom dinlarida axloqiy qadriyatlar muhim o'rin tutadi, ammo ularning shakllanishi, asosiy tamoyillari va rivojlanish turlicha yo'nalishlarda shakllangan. Quyida ushbu paragrafda “husni-xulq” tushunchasini diniy ta'limotlarda axloqiy tamoyillari, me'yorlari va mezonlari nuqtai-nazardan tahlil qilinadi.

Buddizm dinida “husni-xulq” axloqiy komillik, ezgulik va ma'naviy poklik bilan bog'liq holda talqin etiladi. “Buddizm axloqiy tamoyillarining markazida ahimsa (zo'ravonlik qilmaslik), metta (mehr-muhabbat) va karuna (rahm-shafqat) kabi axloqiy o'lchovlar yotadi”[5:3-8]. Bu tushunchalar husni-xulqning asosiy omillari sifatida baholangan. Shaxsiy axloqiy poklik – insonning axloqiy komilligi uning ichki dunyosiga bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Husni-xulq insonning o'zini nazorat qilishi va niyatining pokligiga asoslanadi.

Besh axloqiy tamoyil (Panchasila) – Buddistlar hayotida muhim axloqiy qoidalar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat: “a) Jonli mavjudotlarga zarar yetkazmaslik (ahimsa); b) O'g'rilik va haqsiz narsa olmaslik; c) Nojoiz jinsiy munosabatlardan tiyilish; d) Yolg'on gapirmaslik va tuhmat qilmaslik; e) Aqlni karaxt qiluvchi mast qiluvchi ichimliklar va moddalarni iste'mol qilmaslik”[6:73]. Budda nafaqat vijdonga, balki aql-idrokka ham murojaat qilib, o'z izdoshlarini ushbu tamoyillarga rioya qilish shaxsiy va ijtimoiy muvozanatni ta'minlashga xizmat qilishini anglashga undagan.

Karma va husni-xulq – Buddizm ta'limotiga ko'ra, insonning harakatlari va axloqiy xulq-atvori uning kelajagini belgilaydi. Yaxshi axloqli odam ijobiy karmani to'playdi va kelajak hayotida yaxshilik topadi. O'rtacha yo'l (Madhyama Pratipad) – Budda haddan tashqari moddiy lazatlarga berilish yoki o'zini ortiqcha qiynashdan tiyilishni tavsiya etadi. Husni-xulq ham o'rtacha yo'l tamoyiliga asoslangan bo'lib, insonning muvozanatli va mehribon bo'lishini ta'minlaydi.

To'g'ri nutq, to'g'ri harakat, to'g'ri tirikchilik – Buddizmning “Sakkiz pog'onali yo'l” (Ashtangika Marga) tamoyillarida husni-xulq muhim o'rin tutadi. Xususan, inson o'z nutqida rostgo'ylik, yumshoqlik va mehribonlikni saqlashi, harakatlarida esa odob va odillikni namoyon qilishi kerak. Buddizmda to'rtinchi ezgu haqiqat (nirvanada)da qayd etilganidek, “sakkizta yo'l

uchta asosiy bosqichga bo'lingan: donolik bosqichi (prajna), axloq bosqichi (sila) va diqqatni jamlash (samadhi)"[7:191]. Buddizm axloqi nuqtai-nazaridan bizning tanlagan tadqiqot mavzimiz aynan go'zal xulq uch bosqichning, ikkinchi bosqich (sila)da o'z ifodasini topgan. "Axloq bosqichi: To'g'ri so'z – yolg'on, tuhmat, yolg'on guvohlik berish, haqorat qilish, nafrat uyg'otadigan mish-mishlar va g'iybatlardan saqlanishdir. To'g'ri xatti-harakatlar va to'g'ri hayot yo'li. Xulq-atvorga to'g'ri kelmaydigan har qanday faoliyat turidan voz kechishi kerakligi buddizm dinining oltin qoidasi sifatida anglangan"[8:39-40]. Buddizmning Mahayana yo'nalishida "Paramitalar" tushunchasi alohida o'rin egallab, u so'z "mukammallik" degan ma'noni anglatadi, lekin an'analarda va xalq etimologiyasida "boshqa qirg'oqqa o'tish" deb talqin qilinadi. Shunday qilib, "buddizmda paramitalar transsendental mukammalliklar yoki "birini borliqning boshqa tomoniga olib boradigan mukammalliklar" deb tushuniladi. Paramitaga quyidagilar kiradi: a) saxiylik, b) axloqiy xulq, c) sabr, d) toqat, e) meditatsiya amaliyoti, f) hikmat, j) qasamga sodiqlik, z) quvvat, h) haqiqiy bilim"[9:528], Buddizmda husni-xulq shunchaki jamiyat talab qiladigan axloqiy norma emas, balki insonning ruhiy kamoloti va ichki xotirjamligini topish vositasi sifatida qaraladi. Insonning o'ziga va boshqalarga nisbatan mehribon, samimiy va rahmdil bo'lishi Buddizm axloqiy tamoyillarining asosi hisoblanadi.

Xristianlik ta'limotida husni-xulq (yaxshi axloq) va axloq-odob o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, insonning ichki ruhiy holati va tashqi xulq-atvorining uyg'unligi sifatida tushuniladi. Husni-xulq va axloq-odob odamlar orasida, o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi muhim omillardan biridir.

Husni-xulq – insonning ichki axloqiy sifati, axloq-odob esa uning tashqi ifodasi hisoblanadi. Xristianlik bu bog'liqlikni quyidagi tamoyillar orqali tushuntiradi:

Oltin qoida – "O'zingga qanday muomala qilishlarini istasang, sen ham boshqalarga shunday muomala qil" (Luqo 6:31). Bu tamoyil axloq-odobning husni-xulqdan kelib chiqishini ko'rsatadi. "Har bir daraxt o'z mevasidan taniladi" (Luqo 6:44). Insonning ichki axloqi uning tashqi odobida namoyon bo'ladi. Kamtarlik va kechirimlilik – xristianlikda husni-xulqning muhim jihatlari bo'lib, axloq-odobda sabr-toqat va rahm-shafqat ko'rinishida namoyon bo'ladi. Xristianlik dini axloq va odobning mohiyati haqida bir qancha mutafakkirlar o'z fikrlarini bayon qilgan. Avgustin – yaxshi axloq Xudoni sevish va Uning irodasiga bo'ysunish bilan bog'liq deb hisoblagan. Foma Akvinskiy – axloqiy fazilatlar inson tabiatining bir qismi bo'lib, ularga erishish Xudo bilan bog'lanish orqali amalga oshadi. Lev Tolstoy – axloqiy hayot haqiqat va sevgi asosida qurilishi kerakligini ta'kidlagan.

Xristianlikda husni-xulq va axloq-odob bir-birini to'ldiradi. Ichki axloqiy poklik (husni-xulq) insonning tashqi xulq-atvorida (axloq-odob) namoyon bo'ladi. Bu tamoyillar iymon e'tiqod va poklik tushunchalari bilan mustahkamlangan bo'lib, odamlarni adolatli va ezgu hayot kechirishga undaydi.

Islom dinida Alloh taolo o'zining tadbiri bilan ishlarni tartibga solib, mo'tadillikni xulqqa chiroy etib berib, "insonni eng go'zal shaklu shamoyil bilan ziynatlab, uni ortiqcha nuqsondan asrab, axloqni yaxshilash vazifasini bandaning jiddi jahdiga topshirdi. O'zining tavfiqi bilan xos bandalariga axloq tarbiyasi yo'lidagi mashaqqatlarini oson qildi"[10:318]. Odamlar "husni-xulq"ning mohiyati, uning nima ekanligi haqida ko'p gapiradilar, lekin aslini ochib beraolmaydilar. "Husni-xulq"ni kichik sifatlarini sanab beradi, bir so'z bilan tushunchaning mohiyatini to'liq ochib berolmaydi. Alloh taolo o'zining Payg'ambari va habibini maqtab, u zotga bergan ulug' ne'matini shunday eslatadi: "Albatta siz ulug' xulq ustidadirsiz"[11] (Qalam surasi 4-oyat). Payg'ambarimiz (s.a.v) o'zining chiroyli xulqi, shirin so'zi, xushmuomalasi bilan insonlarga ibrat bo'lib, bu bilan Islom axloqining naqadar go'zalligini amalda hayotlari davomida ko'rsatgan. Ular insonlarni Islomga, Qur'on axloqi bilan yashashga da'vat etishda shirin so'zning ahamiyati katta ekanligini isbotlab bergan.

Husni-xulq tushunchasiga berilgan bir qancha ta'riflarni keltirib o'tamiz: Hasan Basriy "Husni-xulq ochiq yuzli, xayri saxovatli bo'lish, ozor berishdan tiyilishdir". Vositiy "Go'zal xulq xusumatlashmaslikdir. Ma'rifat kuchi, ya'ni Allohni taniydigan inson hech qachon dushmanlikka bormaydi". Sahl ibn Tustariy "Go'zal xulqning eng quyi darajasi mashaqqatlarni ko'tarish, mukofotdan kechish, zolimga rahm-shafqat qilib, unga mag'firat tilashdir". Ali (r.a) "Husni-xulq uchta xislat bilan hosil bo'ladi: haromdan tiyilish, halolni izlash, ahliga bag'rini keng qilishdir". Husni-xulq haqida bunga o'xshash misollar ko'p. Bularning barchasi uning sifatlarini aks ettiradi. Bu tushunchaning mohiyati kengki unga ta'rif va tavsifni sanab adog'iga yetib bo'lmaydi. Istilohda "xulq" va "xuluq" kabi so'zlar birgalikda qo'llaniladi. "Xuluq" zohirga, "xulq" botinga nisbatan qo'llaniladi.

"Xulq" nafs (jon)ga mustahkam o'rnatilgan hay'at (holat) bo'lib, "bu holdan hech bir ikkilanishlarsiz, mashaqqatsiz, o'y-fikrlarga hojat sezmasdan, osongina fe'llarning sodir bo'lishidir. Agar bu hay'atdan aql va shariatga muvofiq maqtalgan va chiroyli fe'llar sodir bo'lsa uni "husni-xulq" ya'ni go'zal xulq deb ataladi"[12:19]. Xulq nafsda mustahkam o'rnatilgan holat dedik, buning sababini shunday izohlash mumkin. Masalan, faqat ehtiyoj tug'ilgan paytdaginab ya'ni kamdan-kam holatda molini sarflaydigan kishini saxiy deya olamizmi? Yo'q? Chunki, bu holat uning nafsida sobit emas. Shuning uchun u molini ixtiyoriy suratda emas, qandaydir ichki va tashqi bosimlar ostida, boshqa iloji qolmagani uchun sarflaydi.

Abu Homid G'azzoliy xulq haqida to'laonli tasavvur hosil qilish uchun to'rtta narsani nazardan qochirmaslik kerak. "Birinchisi, yaxshi va yomon fe'l. Ikkinchisi, yaxshi va yomon fe'lni qilishga qodirlik. Uchinchisi, yaxshi va yomon fe'ldan xabardorlik. To'rtinchisi, nafsning holati bo'lib, nafs doim yo yaxshilikka, yo yomonlikka moyil bo'ladi, bu ikki ishdan biriga erishish unga oson kechadi"[10:327]. Shunga ko'ra xulq fe'ldan iborat emas. Saxiy deb tanilgan insonlar bor,

boridan ajrab qolishdan qo‘rqib yoki boshqa moneliklar sababli molini sarflamaydi. Qancha baxil kishilar bor, molini bekorga yo riyo uchun sarflaydi. Xulq quvvatdan ham iborat emas. Chunki, quvvatni saxiylik, ham xasislikka bog‘lasak, bitta narsada ikkita ziddlikni jamlagan bo‘lamiz. Har bir inson sahovat va ziqnalik qilishdan holi emas, ya‘ni sahovat va ziqnalikka qodirlik fitrati bilan yaratilgan. Shuning uchun bu fitrat insonga na baxllik xulqini, na saxiylik xulqini yuklaydi. Xulq ma‘rifatdan ham iborat emas. Chunki, ma‘rifat yaxshilik va yomonlik, go‘zallik va xunuklik tushunchalarining barchasiga barobar taalluqlidir (ya‘ni, go‘zal xulq faqat yaxshilikni tanib, bilishni emas, balki yomonlikdan ham xabardor bo‘lishni taqazo etadi). Xulq hay‘at (holat)dan iboratdir. Demak, xulq nafsning ichki holati va suratidan iboratdir. Abu Homid G‘azzoliy “Husni-xulq”ni inson botinida to‘rtta rukn bor, ularning go‘zalligisiz xulq go‘zal bo‘lmaydi. Qachonki, shu to‘rt rukn o‘zaro mutanosib bo‘lsa, go‘zal xulq hosil bo‘ladi. “Bular: ilm quvvati, g‘azab quvvati, shahvat quvvati va ushbu quvvatlar orasidagi adolat, ya‘ni mo‘tadillik quvvati”[10:328], G‘azzoliy (shahvat deganda faqatgina jinsiy munosabatga aloqador tushunchalarni emas, balki dunyoga bog‘liq barcha istak va mayllarni nazarda tutgan).

Albatta, yuqorida aytilgan to‘rt ruknning me‘yori mo‘tadillik hisoblanadi. “G‘azab quvvatining go‘zal va mo‘tadil holatini shijoat tashkil qilsa, shahvat quvvatining mo‘tadilligini iffat tashkil qiladi. G‘azab quvvati me‘yordan oshsa, bemulohaza so‘zlar, o‘zini tuta bilmaslik kabi nojo‘ya harakatlar yuzaga chiqadi. G‘azab quvvati me‘yordan pasaysa, qo‘rqoqlik vujudga keladi. Shahvat quvvati mo‘tadil holatdan oshsa, ochko‘zlik, pasaysa, faoliyatsizlik boshlanadi”[13:109]. Demak, eng maqtovgga sazovor holat mo‘tadillik bo‘lib, bu fazilatdir. Me‘yordan oshgani ham, pasaygani ham faqat mazammat holat bo‘lib, bu nuqson hisoblanadi. Adolat tushunchasida oshish va kamayish xususiyati yo‘q. Ya‘ni adolat ko‘payib yo ozayib ketgani uchun buzilmaydi. Uni qarshisida bitta buzuvchi kuch zulm mavjud. Har qanday narsa haddan oshsa, sifati o‘zgaradi. Shuning uchun ham o‘rtalik, mo‘tadillik hikmatga xos fazilat hisoblanadi.

Ko‘pincha xulqning yaxshiligi xalq bilan birga tilga olinadi: “Falonchining xulqi ham, xalqi ham go‘zal” deyiladi. “Bu uning ichi ham, sirti ham yaxshi deganidir. “Xulq”dan murod ichki surat, “xalqdan” murod tashqi suratdir. Zotan, inson jasad va nafsdan iboratdir”[14:212]. Xulq nafsdagi mustahkam o‘rnashgan bo‘lib, unda amallar fikr va o‘ylashsiz, yengillik va osonlik bilan sodir bo‘ladi. Agar amallar yaxshi bo‘lsa, “yaxshi xulq” deb, yomon bo‘lsa, “yomon xulq” deb ataladi.

“Husni xulq” – chiroyli xulq mo‘minlardagi bir qancha sifatlarning majmuasidan iborat. Alloh taoloning O‘zi ularni mazkur sifatlardan sifatlanganligini Anfol surasida marhamat qiladi: “Albatta, Alloh zikr qilinsa, qalblari larzaga keladigan, ularga oyatlari tilovat etilsa, iymonlarini ziyoda qiladigan va Robbilariga tavakkul qiladiganlarigina mo‘minlardir. Ular namozini to‘kis ado etadiganlar va Biz rizq qilib bergan narsalardan nafaqa qiladiganlardir. Ana o‘shalar haqiqiy

mo‘minlardir”[15]. Tazkiyat un-nafs ta’limotida nafsni poklash va tarbiyalashda uchta omil mavjud ekanligi ta’kidlanadi. “Birinchi omil-nafs xastaliklaridan davolanish. Ikkinchi omil-ma’lum maqomatlarni ro’yobga chiqarish. Uchinchi omil-ma’lum ism va sifatlar bilan xulqlanish”[16:5]. Aynan insonning ruhiy tarbiyasida “taxalluk” – “xulqlanish” deganda, Alloh taoloning go‘zal ismlari bilan xulqlanish va bu borada Muhammad (s.a.v)ga ergashish ko‘zda tutiladi. **Asmoul husna** (Alloh taoloning go‘zal ismlari) haqida Qur’oni Karimning bir qancha suralarida oyatlar keltirib o‘tilgan bo‘lib, aynan mana shu sifatlar “Husni xulq”ni tashkil qiladi. Alloh taolo aytadi: **“Allohning go‘zal ismlari bor. Bas, Unga o‘sha (ismlar) bilan duo qilinglar!”** (A’rof, 180-oyat). **“Alloh – Undan boshqa (ibodatga munosib) iloh yo‘q (bo‘lgan) zotdir. Uning go‘zal ismlari bor”** (Toha, 8-oyat). **“(Ey Muhammad), “Allohgga duo qilasizlarmi, Rahmongga duo qilasizlarmi, qaysisiga duo qilsangiz ham, bari bir. Go‘zal ismlar Unikidir”, deb ayting”** (Isro, 110-oyat). Insonning mana shunday xulqlar bilan xulqlanishi katta baxt hisoblanadi. Bu xulqlanishning samarasi komillik hisoblanadi. Allohning go‘zal ismlaridan ibrat olib, hayotda ularning ma’nolariga mos yashash, yaxshi xulq bilan insonlarga muomala qilish – bu Asmoul husna bilan xulqlanish deyiladi. Bu nafaqat dinimizga muvofiq, balki jamiyatda totuvlik va yaxshilikni rivojlantiradigan fazilatdir.

Bandalar Alloh taoloning ba’zi sifatleri bilan sifatlanishi bilishimiz lozim. Misol uchun ko‘rish, eshitish, gapirish, ilm, iroda, qudrat, karam, sabr, xilm, shukr kabi go‘zal ismlari bilan bandalari sifatlanadi. Bu sifatlar albatta Alloh taoloning sifatlaridan farqli hisoblanadi. Misol uchun, ko‘rish sifatini olaylik. Alloh taoloning ko‘rishi chegarasizdir. Bandaning ko‘rishi juda tor doirada bo‘lib, Allohning belgilagan hududda chegaralangan. Insonni tarbiyalash va xulqini go‘zallashtirish uzviy amalga oshadigan jarayon hisoblanadi. “Go‘zal xulqning asosini solih amallar va axloq hisoblanadi. “Husni-xulq” tavhiddan so‘ng dindagi eng ulug‘ maqsadlardandir”[17:95]. Islom dini hukmlarining barchasi chiroyli xulqqa asoslangan.

“Husni-xulq”ning asosi quyidagi uchta xususiyatdan kelib chiqadi. Birinchi xususiyat ilm va hikmat bilan ziynatlangan, quvvatlangan aqlidir. Hikmatdan maqsad e’tiqodda haqiqatni botildan, so‘zlarda to‘g‘rini yanglishidan, ishlar va amallarda chiroylisini xunugidan ajrata olishning tabiiy hol bo‘lishidir. Ikkinchi xususiyat insondagi zararlarni oldini olish tuyg‘usidir va buni ta’minlash uchun yaratilgan. Hikmatning ko‘rsatmasi ostida harakat qilish bilan to‘liq muvozanatga ega bo‘lishdir. Agar hikmat undan itoatkor bo‘lishini talab qilsa, itoatkor, agar ju’ratli bo‘lishini talab qilsa, ju’ratli bo‘ladi. Uchinchi xususiyat foydali narsalarga erishish orzusi va kuchi. Bular yaratilishidan boshlab ong nazoratiga berilgan. Ko‘rsatilgan harakat va munosabatlarning go‘zal va mo‘tadilligi, hikmatga muvofiqligi bilan o‘lchanadi. Axloqda maqbul va matlub bo‘lgan, mo‘tadil va o‘rta me’yorda bo‘lish hisoblanadi.

Inson tabiatida shunday sifatlar yashirinki, ularni muntazam harakat bilan yuzaga chiqariladi. Go‘zal xulqlar bolalarda eng avvalo kattalar (ota-onasi va yaqinari)dan, yaxshi xulqli bolalar bilan do‘st tutinish bilan hosil bo‘ladi. Ikkinchisi, qattiq mehnat va riyozat bilan hosil bo‘ladi. Aytaylik, kimdir o‘zida sahovat xulqini hosil qilmoqchi. Buning uchun u sahiylar hayotini o‘zlashtirishga intilishi kerak.

Xulosa va takliflar, birinchidan, “husni-xulq”ning diniy ta’limotlarda – Islom, xristianlik, buddaviylik va boshqa dinlarda husni-xulq insonning axloqiy yetukligi va komilligining mezon sifatida qaraladi. Qur’on va Hadislarda yaxshi axloq iymon bilan bog‘liq deb hisoblanadi. Ikkinchidan, “husni-xulq”ning qadriyatlari sabr, adolat, saxovat, halollik kabi fazilatlarga asoslangan bo‘lib, bu qadriyatlar nafaqat diniy, balki umuminsoniy tamoyillarga ham mos keladi. Uchinchidan, axloqiy barkamollik nafaqat shaxsiy balki jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun ham muhim hisoblanadi. Diniy ta’limotlar bu borada o‘zaro hurmat va hamjihatlikni targ‘ib qiladi. To‘rtinchidan, ilm va husni-xulqning uyg‘un bo‘lib, diniy manbalarda axloqiy poklik va bilim olish bir-birini to‘ldiruvchi omillar sifatida talqin qilinadi. Ilm-hunar egallash husni-xulqni yuksaltirishga xizmat qiladi. Beshinchidan, yaxshi axloqli inson o‘z jamiyatida hurmat va obro‘ qozonadi, muomala madaniyati va halollik unga muvaffaqiyat keltiradi. Bu qadriyatlar har qanday din va madaniyatda qadrlanadi.

Ijtimoiy muhitda “husni-xulq”ni yuksaltirish yuzasidan takliflar:

1. Ta’lim tizimida axloqiy tarbiyani kuchaytirish – maktab va oliy o‘quv yurtlarida axloqiy qadriyatlarni o‘rgatish bo‘yicha alohida dasturlar ishlab chiqish.
2. Oila muhitida husni-xulqni shakllantirish – farzandlarga ibrat bo‘lish va ularni yaxshi fazilatlar asosida tarbiyalash orqali jamiyatda husni-xulqni rivojlantirish.
3. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish – jamoat joylarida, internet va ijtimoiy tarmoqlarda, ijtimoiy roliklar asosida husni-xulq mavzusida targ‘ibot olib borish.
4. Axloqiy yetuk insonlarni rag‘batlantirish – jamiyatda yaxshi xulq-atvori bilan namuna bo‘ladigan shaxslarni taqdirlash va ularga e’tibor qaratish tizimini yaratish. Bu xulosa va takliflar husni-xulqni yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Yaxshilik va yomonlik. – Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2002.
2. Рыбаков Р.Б. История Востока. В 6 т. Т. 2. Восток в средние века / Гл. редкол.: [Отв. ред. Л.Б. Алаев, К.З. Ашрафян]. – М.: “Вост. лит”, 2002. – С.216.
3. Фишбейн М. Религиозные традиции иудаизма // Религиозные традиции мира. Т. 1. М., 1996.

4. Аверинцев С.С. Иудаистическая мифология. Мифы народов мира: Энциклопедия. Электронное издание / Гл. ред. С.А.Токарев. М., 2008. С.479.
5. Бадмацыренов Т.Б. Буддийская практика спасения в теории ступеней пути пробуждения // Вестник Бурятского Государственного университета. 2015. Вып. № 14. С. 3-8.
6. Торчинов Е.А. Школы и направления буддизма. Хинаяна и махаяна // Введение в буддизм / под ред. Т. Уваровой. – Санкт-Петербург.: Амфора, 2013. — С. 73.
7. Андросов В. П. Будда Шакьямуни и индийский буддизм. Современное истолкование древних текстов. – М.: «Восточная литература» РАН, 2001. – С.191.
8. Торчинов Е. А. Основы буддийского учения // Введение в буддизм / под ред. Т. Уваровой – Санкт-Петербург.: “Амфора ТИД”, 2013. – С. 39-40.
9. Степанянц М.Т. Философия буддизма: энциклопедия. Ин-т философии РАН – М.: «Восточный. литература», 2011. – С.528.
10. Абу Ҳомид Ғаззолий. Ихйоу улумид дин (Тавба, сўнгги манзил зикри, нафс тарбияст, тил офатлари). Араб тилидан таржимон Рашид Зоҳид. – Тошкент.: “Matbaachi”, 2022. – Б.318.
11. Абдулазиз Мансур. Қуръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири. 4-қайта нашр. –Тошкент.: “Сано-стандарт”, 2021.
12. Horun Yahyo. Qur'on axloqiga ko'ra mo'minning 24 soati. Turk tilidan erkin tarjima Tarjimon: Sarvarova Dilfuza. – Toshkent.: «Movarounnahr», 2006. – В.19.
13. Абсатторов Б.М. Инсон ахлокий камолотида мезон ва меъёр муаммосининг ижтимоий-фалсафий таҳлили. Дисс... –Тошкент.: “IMPRESS MEDIA”, 2022. – Б. 109.
14. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Рухий тарбия. (Покланиш). 1-жуз. – Тошкент.: “HILOL NASHR”, 2024. – Б.212.
15. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. «Қуръони Карим» ва ўзбек тилидаги маънолари таржимаси – Тошкент.: «HILOL NASHR», 2017. 628 б.
16. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Рухий тарбия. (Хулқланиш). 3-жуз. – Тошкент.: “HILOL NASHR”, 2024. – Б.5.
17. Зиёвуддин Раҳим Қалблар табобати (Қалб касалликларидан халос бўлиш йўллари). – Тошкент.: “Matbaachi”, 2023. – Б.95.